

INNOVATSION LIDERLIK VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Xasanova Dilnoza Abduxamid qizi

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
MBA Liderlik (Leadership) OL-1uz-25S-e gurux
magistr tinglovchisi,*

Annotatsiya: Maqolada Ta'lim tizimining rivojlanishi iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlar innovatsion liderlik va investitsion strategiyalar orqali ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada xususiy va davlat sektorining hamkorligi, xalqaro va mahalliy investitsiyalar, innovatsion liderlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion liderlikning rolini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion liderlik, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, ta'lim tizimi, davlat-xususiy hamkorlik.

Abstract: The development of the education system is a key factor in economic growth and competitiveness. This study focuses on innovative leadership and investment strategies to modernize the education system and improve its efficiency. The article analyzes public-private partnership, local and international investments, and the impact of innovative leadership on economic performance. The findings highlight the role of innovative leadership in enhancing education efficiency and provide practical recommendations for policymakers and educational managers.

Keywords: innovative leadership, economic efficiency, investment, education system, public-private partnership.

Kirish (Introduction)

O'zbekiston ta'lim tizimi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, barqaror rivojlanish uchun sezilarli investitsiyalar talab qiladi. Innovatsion liderlik va samarali investitsion strategiyalar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish va o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro va mahalliy investitsiyalar orqali raqamli ta'lim infratuzilmasi, pedagogik resurslar va malaka oshirish dasturlari rivojlantiriladi.

Maqolaning maqsadi – innovatsion liderlikning ta'lim tizimi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilish va samarali investitsiya mexanizmlarini aniqlash.

METHODS: Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi: **Nazariy tahlil** Liderlik, boshqaruv, tashkiliy psixologiya va menejment bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalar o'rganildi. **Taqqoslash usuli** Turli boshqaruv modellari va liderlik konsepsiyalari solishtirildi. **Strukturaviy-tahliliy yondashuv** Rahbarning kasbiy, shaxsiy, ishbilarmonlik va tashkiliy fazilatlarini tizimli tahlil qilindi. **Vaziyatli tahlil (case-analysis)** Murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilishning real misollari asosida liderlik samaradorligi baholandi.

Natijalar (Results)

2021-yilda UNESCO O'zbekistonga ta'lim tizimini rivojlantirish uchun 50 million dollar ajratdi, bu mablag'lar raqamli ta'lim va innovatsion metodlarni joriy etishga yo'naltirildi. 2025-yil byudjeti loyihasiga ko'ra, 59,5 trillion so'm maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga ajratilgan. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion o'quv resurslarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Singapur va AQSh tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy hamkorlik orqali investitsiyalar samarali tarzda ta'lim tizimiga jalb qilinadi va o'quvchilar akademik ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Mahalliy investitsiyalar o'quvchilarning raqamli bilimini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Muxokama (Discussion)

Ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladigan investitsiyalarning muhim manbalaridan biri – xalqaro va mahalliy investitsiyalardir. O'zbekiston ta'lim tizimi ham, iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari qatorida, o'zining barqaror rivojlanishi uchun sezilarli miqdordagi sarmoya kiritishni talab etadi. Investitsiyalarni jalb qilish orqali zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar uchun zarur bo'lgan infratuzilma, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, malaka oshirish dasturlari va pedagogik resurslar taqdim etilishi mumkin. Xalqaro va mahalliy investitsiyalar ta'limning sifatini yaxshilash, maktablar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va o'quvchilarga innovatsion ta'lim muhitini yaratish kabi sohalarda muhim o'rin tutadi.

2021-yilda BMTning Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti (UNESCO) O'zbekistonga ta'lim sohasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun 50 million dollar ajratgan. Ushbu mablag'lar raqamli ta'limni joriy etish, o'quvchilarga innovatsion bilim berish va maktablarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirishga sarflanmoqda. Xalqaro investitsiyalar ta'lim tizimi modernizatsiyasiga yordam berib, ularning ta'siri o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarida sezilarli darajada o'zgarishlar keltiradi.²⁶

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2025-yil byudjeti loyihasiga ko‘ra, 59,5 (ellek to‘qqiz butun o‘ndan besh) trillion so‘m aynan maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga ajratilgan.

Xalqaro va mahalliy investitsion manbalarni jalb qilish orqali O‘zbekistonda ta‘lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda. Mahalliy investitsiyalar esa, xususiyl sektor va davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar orqali ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro va mahalliy investitsion manbalarni samarali jalb qilish orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, raqamli ta‘limni joriyl qilish va o‘qituvchilar malakasini oshirish kabi masalalar hal etilmoqda. Shu bilan birga, davlat va xususiyl sektordan kelgan investitsiyalarni yanada kengaytirish, ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish va ixtisoslashgan maktablarni modernizatsiya qilishda muhim vosita bo‘ladi.

Xususan, O‘zbekistonda davlat va xususiyl sektor o‘rtasidagi hamkorlik, ta‘lim tizimiga investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmiga aylanmoqda. 2021-yilda ta‘lim tizimiga ajratilgan budjet mablag‘lari 12,6 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu mablag‘larning 40% dan ortig‘i o‘quv muassasalarining infratuzilmasini yangilashga, zamonaviyl o‘quv resurslari va raqamli texnologiyalarni joriyl qilishga sarflandi. Xususiyl sektor tomonidan ajratilgan mablag‘lar esa ta‘lim texnologiyalarini rivojlantirish, maktablarning interaktiv resurslari va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Dunyo miqyosida xususiyl va davlat sektorlarining ta‘lim sohasida muvaffaqiyatli hamkorliklariga misollar juda ko‘p. Masalan, Singapurda xususiyl sektor va davlat o‘rtasida ta‘lim tizimiga investitsiya kiritishning muvaffaqiyatli modeli mavjud. Singapurda davlat tomonidan ajratilgan mablag‘larning 50% dan ortig‘i xususiyl sektor tomonidan qo‘shiladigan investitsiyalar bilan birlashtiriladi. Singapurda ta‘lim sohasiga yillik sarmoya kiritish hajmi 4,5 milliard dollarga yetadi, bu mablag‘larning katta qismi davlat va xususiyl sektor o‘rtasida samarali hamkorlik orqali ta‘lim tizimining takomillashtirilishiga sarflanadi.

AQShda ham xususiyl sektor va davlat hamkorligi muvaffaqiyatli tajriba sifatida e‘tirof etiladi. AQShda “No Child Left Behind” (NCLB) (Hech qanday bola orqada qolmaydi) dasturi doirasida xususiyl sektordan 2 milliard dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilindi. Bu investitsiyalar o‘quvchilarga raqamli ta‘lim materiallari, interaktiv ta‘lim platformalari va maxsus o‘quv kurslari taqdim etish uchun sarflandi. Bu dasturda davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar va xususiyl sektor tomonidan qo‘shilgan sarmoyalar orqali ta‘limning sifatini oshirishga erishildi va o‘quvchilar o‘rtasidagi akademik ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi.

O‘zbekistonda xususiyl sektor va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston hukumati tomonidan ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qabul qilingan ta‘limga investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi doirasida davlat va xususiyl sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga

katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu strategiya doirasida 2023-yilgacha davlat tomonidan ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'larni 20% ga oshirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan xususiy sektorga ta'limga investitsiya kiritish uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar taqdim etildi.

Xususiy va davlat sektorining hamkorligi O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik nafaqat investitsion manbalarni jalb qilishga, balki ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga, yangi o'quv dasturlar, darsliklarni joriy qilish va o'quvchilarga innovatsion bilim berish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xususiy sektor va davlat o'rtasidagi samarali hamkorlik orqali O'zbekiston ta'lim tizimi global miqyosda raqobatbardosh bo'lib, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davom etadi. Davlat va xususiy sektorlarining hamkorliklari orqali ta'lim tizimiga investitsiya kiritishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim sohasidagi investitsion strategiyalar nafaqat ta'lim tizimining sifatini oshirishga, balki umumiy iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston hukumati ta'limni rivojlantirish va xalqaro talablar darajasiga keltirish uchun turli investitsiya strategiyalarini amalga oshirayotgani, davlat siyosati va tashqi hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion liderlik va samarali investitsiya mexanizmlari ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Innovatsion liderlar strategik qarorlarni ma'lumotlar asosida qabul qiladi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etadi va xodimlar malakasini oshiradi.

Xalqaro tajribalar O'zbekiston uchun ham foydali bo'lib, davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'limning sifatini oshirish, raqamli ta'limni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

Xulosa: Innovatsion liderlik ta'lim tizimi va iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususiy va davlat sektorlarining samarali hamkorligi investitsiyalarning ta'lim tizimiga jalb qilinishini ta'minlaydi va infratuzilmani modernizatsiya qiladi. Ushbu tadqiqot innovatsion liderlik va investitsiya strategiyalarini rivojlantirish orqali O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashga imkon yaratadi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6198-son Farmoni.

2. 18. 2020-yil 18-apreldagi 240-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi to‘g‘risida”gi nizom.
3. 19. 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” loyihasi.
4. 20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.
5. 21. “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyun PQ-231-son qarori
6. Goncharova N. V. Upravlenie chelovecheskimi resursami organizatsii v usloviyax sovremennogo rymka truda : uchebnoe posobie / N. V. Goncharova, L. V. Dayneko, Ye. V. Zayseva. pod obo‘. red. Ye. V. Zaysevoy/– Yekaterinburg : Izd–vo Ural. un–ta, 2021. – 162 s.
7. Qodirov T.U. Inson resurslarini boshqarish. Darslik.// T.U. Qodirov. – T.: Impress media, 2025. -566 bet.
8. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
9. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. Darslik: T.: 2025, 475 bet.
10. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
11. Suyunov D.X., S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022. 450 bet.
12. Suyunov D.X., A.T. Kenjabayev, A. Ro‘ziyev Elektron tijorat. 2023. 450 bet.